

ICHIMLIK SUVI TA’MINOTINI ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA ULARNI YECHISH YO‘LLARI

G.F.Sherqo‘ziyeva

Toshkent davlat tibbiyot universiteti., Toshkent., O‘zbekiston

Ishning dolzarbligi: So‘nggi vaqtlarda toza ichimlik suvi atrof muhitni antropogen ifloslanishi, shuningdek global iqtisodiy krizis natijasida kuchayib boruvchi insoniyatning rivojlanishida geoekologik limitlovchi omilga aylanib bormoqda. Keyingi yillarda mamlakatimizda suvdan oqilona foydalanish, uning sifati va xavfsizligini ta‘minlash, shuningdek, suv iste‘molini hisobga olishning zamonaviy innovatsion tizimlarini joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar qo‘llanilgan holda suvdan foydalanish, shu jumladan suv ta‘minoti va yer osti suv manbalaridan samarali foydalanish sohasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq, global iqlim o‘zgarishi tufayli respublikada quruq fasllarning davomiyligi oshib bormoqda, tog‘larda qor zaxiralari maydoni kamaymoqda, kamsuvlik takrorlanishi tobora ko‘paymoqda, bu esa o‘z navbatida suv tanqisligi kelib chiqish xavfining oshishiga olib keladi. Global darajada, eng kamida 1,8 milliard kishi fekal moddalar bilan ifloslangan ichimlik suv manbalaridan foydalanmoqda. Ifloslangan suv diareya, vabo, dizenteriya, ich terlama va poliomiyelit kabi kasalliklar qo‘zg‘atuvchilarini tashuvchi omil bo‘lishi mumkin. Hisob-kitoblarga ko‘ra, ifloslangan ichimlik suvi har yili 500 000 dan ortiq o‘lim holatlariga sababchidir. 2025 yilga borib, dunyoning yarim aholisi suv tanqisligi mavjud bo‘lgan joylarda yashaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev 19 sentabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida nutqidan Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta‘minlash bilan bog‘liq muammolar to‘g‘risida so‘z yuritarkanmiz, mintaqaning umumiy suv zaxiralariidan oqilona foydalanish kabi muhim masalani chetlab o‘tolmaymiz deb ko‘rsatib o‘tdilar. Shu bilan birga respublikamiz BMT tomonidan Orol fojiasidan jabr ko‘rgan aholiga amaliy yordam ko‘rsatish bo‘yicha shu yil qabul qilingan maxsus dastur to‘liq amalga oshirilishi tarafdorligimiz ko‘rsatib o‘tiladi.

Materiallar va qo‘llanilgan usullari: Biz mavzuning dolzarbligidan kelib chiqib aholi suv ta‘minotini ekologo-gigiyenik baholash natijalari asosida aholining salomatligini saqlash va mustaxkamlashga qaratilgan sog‘lomlashtirish profilaktik chora-tadbirlar ishlab chiqishni maqsad qilib oldik va bunda quyidagi tadqiqot usullaridan foydalandik: sanitar-tavsifiy, so‘rovnoma (anketa) va statistik.

Tekshirish natijalari: Kuzatuv mintaqasidagi aholining vodoprovod suvidan foydalanuvchilari quyidagicha: Tepa-4725, Mushkent-1922, Qoziyoqli—3719 va Salovat MFY-3922 tasi foydalaniladi. Quduq suvidan esa Yangi ariq MFY aholisining -1151, Olti o‘g‘il-560, Umid-407, No‘g‘oy-803 va Ipak yo‘li MFY aholisining -349 tasi, to‘liq tashib keltiriladigan suvdan esa Bolg‘ali MFYning 4180 tasi, mangit -3654, sarbozor-3991, Oq oltin -4606 va Xo‘jaqo‘rg‘on MFYning 4272 ta aholisi foydalanadi.

Xulosa: Olingan natijalardan quyidagilarni xulosa qilish mumkin kuzatuv mintaqasidagi aholi asosan maxalliy suv ta’minotidan foydalaniladi. Ichimlik suv ta’minoti tizimidagi suvning sifat ko‘rsatkichlari qisman gigiyenik talablarga mos kelmagan ayniqsa 2020 yilda yuqori natijalarni ko‘rsatdi. Buning uchun profilaktik chora tadbirlarni ishlab chiqish, xususan aholini to‘liq markazlashtirilgan xo‘jalik ichimlik suvi bilan ta’minlashga erishish. vodoprovod tarmog‘i qurilmalarini ikkilamchi ifloslanishdan muhofaza qilish va aholi o‘rtasida sanitariya targ‘ibot ishlarini olib borish maqsadga muvofiq xisoblanadi.